



**MAQSUD SHAYXZODA IJODINING O'ZBEK ADABIYOTIDAGI
TUTGAN O'RNI**

Olimjonova Nozima Foziljon qizi

Toshkent davlat Transport universiteti, AYM fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqsud Shayxzoda nafaqat yetuk ijodkor, balki chuqur bilimli tadqiqotchi ham edi. Uning adabiyotshunoslik sohasida qilgan xizmatlari beqiyosdir. Bundan tashqari u mohir tarjimon ham bo`lgan. Uning yaratgan asarlari manaviy merosimiz va boyligimiz hisoblanadi. Hozirgi kunda juda ko`p joylarga Maqsud Shayxzoda nomiga berilgan. Bundan tashqari uning nomiga medal , stipendiyalar ham ta`sis etilgan.

Kalit so`zlar: hayoti , asarlari , she`riy to`plamlar , ocherklar, tarjima kitoblar , falsafa adiblarning fikri , ijodiy do`stlari.

Ozarbayjon naslidan bo`lib, keyinchalik o`zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug‘ilgan. Otasi Ma’sumbek elu-yurtda katta obro‘ga ega shifokor edi. San’at va adabiyotni yuksak qadrlagani bois, Oqtosh ziyolilari bilan turli masalalarda suhbatlashardi. Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuklar nomini ana shu davralarda suhbatlarda eshitdi va bu muhit unga adabiyotga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otdi. Hali alifboni tanimagan bo‘lajak shoir chamasi besh yoshlik davrlarida sakkiz-o‘n misrali masal yoza boshlagan. Shayxzoda Oqtoshdagi maktabda ta’lim oldi. Maqsud ziyrakligi, tirishqoqligi tufayli muallimlar e’tiborini qozondi va 1921-1925 yillar davomida Bokudagi Oliy pedagogika institutida sirtdan o‘qidi. Shu yillari u she’rlarini qoralay boshlagan. Bo‘ynoqdagi pedagogika bilim yurtida jamiyatshunoslik fanidan dars bergen Shayxzoda Ozarbayjoni Sho‘rolar davlatidan ajratib olishga urinishda ayblanib, 1928-yilda Toshkentga surgun qilinadi. U Toshkentda hayotining har tomonlama yangi, bahor



tarovatidek toza va beg‘ubor davrini boshlashga ahd qiladi, ism-sharifiga jindek tahrir kiritib, Shayxzoda taxallusini qabul qiladi. Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuklar nomini ilk marotaba ana shu guruhglarda eshitadi va bu muhit unga adabiyotga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi. Maqsud Shayxzoda Oqtoshda ibtidoiy maktabni bitirgach, 1921 yili Boku dorilmualliminiga o‘qishga kiradi va uni tugatgach Dog‘istonning Darband, Bo‘ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926 yili Adhem Fayziy tashkilotiga a’zo etilgan «Milliy firqa» tashkilotiga a’zo bo‘lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928 yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho‘ro hukumati Shayxzodani O‘zbekistonda ham ta’qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo‘q.

Muhimi shundaki, Shayxzoda «tole doim erkalamaganiga» qaramay, umrining oxiriga qadar o‘zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko‘rsatdi va O‘zbekiston uning ikkinchi vatani bo‘lib qoldi. Ozarbayjon naslidan bo‘lib, keyinchalik o‘zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug‘ilgan. Otasi Ma’sumbek elu-yurtda katta obro‘ga ega shifokor edi. Maqsud Shayxzoda san’at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqgan.

Dastlabki she’riy to‘plami — „Loyiq soqchi“ (1932). Shundan keyin shahrining „O‘n she’r“ (1932), „Undoshlarim“ (1933), „Uchinchi kitob“ (1934), „Jumhuriyat“ (1935), „O‘n ikki“, „Yangi devon“ (1937), „Saylov qo‘shiqlari“ (1938), „Kurash nechun?“ (1942), „Jang va qo‘shiq“, „Ko‘ngil deydiki“ (1943), „O‘n besh yilning daftari“ (1947), „Yurt she’rlari“ (1948), „Zamon torlari“, „Olqishlarim“ (1949), „Yillar va yo‘llar“ (1961), „She’rlar“ (1964) va boshqa she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Shoirning dastlabki ijodida va qisman 50 yillardagi ayrim she’rlarida ozarbayjon she’riyatiga xos ohanglar, minbar she’riyat belgilari ustuvorlik qilgan. Ammo Shayxzoda o‘zbek mumtoz va zamonaviy she’riyatining tili va uslubini egallagani sayin uning she’rlarida o‘zbekona musiqiy raxonlik kuchaya bordi. Shayxzoda voqelikka faol munosabatda bo‘lishga intilib, xalq va mamlakat hayotida



ro'y berган мухим воqealarni tasvirlashga, mehnat va kurash qahramonlari obrazini yaratishga alohida e'tibor berdi. U shu maqsadda doston janriga qo'l urib, „O'rtoq mulk“ (1933), „Chirog“, „O'rtoq“, „Meros“, „Tuproq va haq“ (1936), „Ovchi qissasi“, „Iskandar Zulqarnayn“ (1940), „O'n birlar“, „Jenya“, „Oqsoqol“ (1943), „Axmadjonning hikmatlari“, „Uchinchi o'g'il“ (1944), „Nurmat otaning tushi“ (1947) singari liroepik asarlar yozdi. Shoirning 30-40 yillardagi she'riyatiga ham, keyingi ijodiga ham xos muhim fazilatlardan biri syujetlilikdir. Shayxzoda lirk syujet yaratishga moyil shoir sifatida xalq afsonalari va tarixiy o'tmish sahifalariga, shuningdek, zamondoshlari hayotiga murojaat etib, o'z she'rlariga balladaga xos poetik belgilar va turli poetik tafsillarni olib kirgan, so'zning she'riy qurilmadagi mavqeini oshirish choralarini ko'rgan. Maqsud

Shayxzoda 1956-yilda "Alpomish" dostonidagi ba'zi bir poetik xususiyatlar haqida tadqiqot olib borar ekan, bu dostonning vazni, badiiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyati, mazmuni, obrazlar olami xususida keng ma'lumot beradi. Jumladan, "Alpomish" dostonining ritmik negizi sillabik sistema ("hijo vazni yoxud barmoq vazni") ekanligi, bu vazn turkiy tillarda so'zlovchi barcha xalqlarning og'zaki poeziyasiga xos bir vazn bo'lib kelganligini aytib o'tadi. Bundan tashqari, Maqsud Shayxzoda dostondagi uchraydigan poetik xususiyatlar: saj', qofiya, radif kabilarga alohida to'xtaladi. Olim: "Dostonda qofiyaga rioya qilish va unga moyillik shu qadar zo'rki, hatto she'rlar o'rtasiga kiritilgan. she'riy parchalar ham qofiyalangan", - deb misol tariqasida shu parchani keltiradi: "Barchinoyni otdan tushirib yotgan, besh yuz sepi ni ortgan, qirqin kanizlar Barchinni baxmal uyga olib ketgan, toza liboslarni bu uyga solib yetgan, hammasi choydish-qumg'oni qaynatgan hokazo..." Bu she'r emas, nasr (prozadir). Ammo qofiyalangan nasrdirki, buni mumtoz adabiyotda saj' deb ataladi. Demak, bu usul ham xalq poeziyasida chuqur ildizlarga ega. Demak, Maqsud Shayxzoda xalq og'zaki ijodiga mansub asarlarni mumtoz adabiyot bilan qiyosan o'rgangan. Zero, yozma adabiyotda o'z rivojini topgan har qanday so'z, obraz, badiiy g'oyaning ilk asosi xalq og'zaki ijodidir. Maqsud Shayxzoda esa holni ilmiy ravishda buni to'g'ri anglab yetgan va maqolalarida bu asoslab bergen Xullas, Maqsud Shayxzoda o'zining "Shirin bilan Shakar", "Alpomish" dostonlari xususidagi



chuqur mulohazalari, "Baxshining ijod yo‘li" kabi maqolalari bilan xalq og‘zaki ijodiga o‘z hissasini qo‘scha olgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Matchonov, Sh. Sariyev, “Nafis Bezak” 2012y
2. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. Toshkent. 2002. 558 b.
3. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969.
4. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972.
5. G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975.